

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLAKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

Mubinov M. A.

Tayanch doktorant

Buxoro davlat universiteti

mubinovm94@mail.ru

BUXORO AMIRLIGI TO‘G‘RISIDAGI MA‘LUMOTLARNING YEVROPA MAMLAKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada inglizzabon mualliflar tomonidan XVIII–XIX asrlarda yaratilgan asarlar hamda zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlari Buxoro amirligi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixining o‘rganilishidagi o‘rni va ahamiyati tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Maqolada ingliz tilida yozilgan manbalar orqali Buxoro amirligi haqidagi ma‘lumotlarning Yevropa mamlakatlarida keng tarqalishi va ommalashuvi jarayoni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, Buxoro amirligi tarixining G‘arb tarixshunosligida aks etishi, ularning mazmuniy xususiyatlari va tarixiy tasvirlarining shakllanish jarayoniga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, diplomat, sayohat, kolonial yondashuv, sharqshunoslik, inglizzabon mualliflar, “Katta o‘yin”, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, tarixiy manba, dekonstruksiya.

KIRISH

O‘rta Osiyo xonliklari orasida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng qudratli hisobangan, Markaziy Osiyo mintaqasida katta ta’sirga ega bo‘lgan Buxoro amirligi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko‘p sonli xorijiy tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lgan. Buxoro amirligiga maqsadidan qat’iy nazar uni har tomonlama tadqiq qilish uchun tashrif buyurgan inglizzabon xorijlik diplomat, sayyoh, ilmiy ekspeditsiya a’zolari, hattoki xufyalar o‘z sayohatlari natijasida yaratilgan asarlar asosida yirik manbalar bazasini yaratishdiki, ularning asarlari orqali dastlab Yevropa mamlakatlari, keyinchalik esa Amerika Qo‘shma Shtatlari kitobxonlari Buxoro amirligi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ldilar. Aynan Buxoro amirligi kabi yirik mamlakatning mavjudligi, uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Sharqning ekzotik shaharlarga ega yirik davlatlari tarixi doirasida Yevropa mamlakatlarida keng yoyilib ommalashib bordi.

Shuni takidlash joizki, Buxoro amirligi tarixini o‘ganish XVIII-XIX asrlardayoq mintaqaga tashrif buyurgan xorijlik elchilar, savdogarlar, xufyalar,

sayohatchilar va hattoki o'lkaga maxsus tadqiqot masalasida tashrif buyurgan mutaxassislar [1] tomonidan amalga oshirilganligi zamonaviy tadqiqotlarda endilikda chuqur izlanishlarga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, mahalliy va rus tadqiqotchilari amirlik tarixini chuqur ilmiy, arxeologik, etnografik, topografik tadqiqotlar asosida batafsil yoritishga harakat qilgan bo'lsalarda, xorij tarixshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarini o'rganish masalasini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Chunki sobiq sho'ro davrida xorij tarixshunosligi bir tomonlama yoritilib, uning natijalari, asalari, ilmiy xulosalari mavjud tuzum manfaatlaridan kelib chiqqan holda talqin qilib kelingan va undagi ba'zi aniq ilmiy xulosalar ilmiy muomalaga kiritilmagan [2]. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, xorij tarixshunosligida, asosan, inglizzabon mualliflar tomonidan Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixining o'rganilishi masalasiga xronologik va muammoviy asosda yondashib, tanqidiy nuqtai nazardan o'rganishimiz, inglizzabon mualliflar asarlarini o'rganishimiz, ular tadqiqotining ilmiy va amaliy xulosalarini ilmiy muomalaga olib kirishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

To'g'ri, XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asrda yaratilgan inglizzabon manbalarda turli g'oyalar, xususan, yevrosentrizm, mustamlakachilik, Sharqning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ortda qolganligi, oqsuyak kishilar hukmronligi, yevropacha hayot tarzining ustunligi singari g'oyalar ko'zga tashlansada, Turkiston mintaqasi mamlakatlari, jumladan Buxoro amirligi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar, ko'p jabhalarda xolis yondashuvlar bisyor. Bugungi kunda mazkur manbalarni tanqidiy nuqtai nazardan chuqur qayta ko'rib chiqish, ularda yoritilgan jihatlarni ilmiy muomalaga olib kirish, Buxoro amirligi tarixining Yevropa mamlakatlarida tadqiqot obyektiga aylanganligi masalasini ilmiy, tarixiy tahlil qilish O'zbekiston tarixshunosligi oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ingliz tilida yaratilgan manbalarda Buxoro amirligining yirik mamlakat bo'lganligi, uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlat sifatida Markaziy Osiyoda keng ko'lamli siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar olib borganligi haqida juda ko'p dalillar mavjud.

O'rganilayotgan mavzu doirasidagi adabiyotlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib tahlil qilamiz. Birinchi guruh adabiyotlariga bevosita Buxoro amirligida bo'lgan va amirlikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan tanishgan inglizzabon mualliflarning asarlarini kiritamiz. Bu guruh adabiyotlari sirasiga Jorj Tomson (George Tomson), Mir Izzatulloh, Aleksandr Byorns (Alexander Burnes), Uilyam Murkroft (William Moorcroft), Arminiy Vamberi (Arminius Vambéry), Richard Frensis Berton, Genri Lansdell (Henry Lansdell), Jorj Nataniyel Kerzon (George Nathaniel Curzon), Frensis Skrayn (Francis Skrine), Edvard Denison Ross (Edward Denison Ross) kabi tadqiqotchilarning asarlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh adabiyotlari sifatida hozirgi kunda tadqiqot olib borayotgan va birinchi guruh tadqiqotchilarining asarlari va xotiralarini tahlil qilish asosida faoliyat olib borgan va olib borayotgan Levi Skot (Scott Levi), Richard Frey (Richard Fray) kabi tadqiqotchilarning asarlarini, maqola va nashrlarini misol keltirishimiz mumkin.

Mazkur tadqiqot obyekti doirasidagi ilmiy adabiyotlarni tavsiflash va yoritish jarayonida umumilmiy usullar kompleksidan foydalanilgan holda tanqidiy tahlil, tavsiflash, qiyosiy tahlil, dekonstruksiya, umumlashtirish kabi usullar qoʻllanildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Buxoro amirligining tarixi oʻzining mavjudligi davrida ham, keyingi davrlarda hamda bugungi kunda ham juda koʻp ilmiy tadqiqot institutlarida oʻrganilgan. Bizdagi mavjud materiallar asosida inglizxon mualliflarning qarashlarini va ularning Buxoro amirligi tarixi boʻyicha oʻrgangan sohalarini sinflarga boʻlish asosli emas. Ammo shunday boʻlsada, biz ushbu tadqiqot doirasini shartli ravishda bir necha guruhlariga boʻlib tavsiflashni lozim topdik.

Birinchi guruh sifatida Turkiston mintaqasidagi geosiyosiy masalalari kontekstida Buxoro amirligining siyosiy tarixini oʻrganish oʻrinli deb bilamiz. Chunki, A.G. Dankov taʼkidlab oʻtganidek: “mazkur mintaqada ingliz olimlari, siyosatchilari, diplomatlarining diqqatini tortgan eng birinchi asosiy masala bu Oʻrta Osiyoda rus-ingliz munosabatlari, Buxoro-Rossiya aloqalari, ulardagi ziddiyatlar, amirlik hududidagi siyosiy vaziyat, mamlakat ichidagi siyosiy-maʼmuriy boshqaruv hamda amirlarning hokimiyati va ularning xalq bilan munosabatlari masalalari edi” [3]. Bundan tashqari, Gʻarb kitobxonlarida Buxoro amirligining siyosiy hayoti toʻgʻrisidagi tasavvurlarni shakllantirish, amirlikda amal qilgan maʼmuriy-boshqaruv mexanizmini tushuncha hosil qilish uchun ham siyosiy jihatlarni yoritgan asarlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu oʻrinda shuni taʼkidlab oʻtish kerakki, XIX asr davomida va XX asrning dastlabki 10 yilligida ushbu masalada ikki xil qarash shakllangan. Birinchidan, bir qancha inglizxon mualliflarda kolonial qarash, yaʼni mustamlakachilik nuqtai nazardan Buxoro amirligi siyosiy hayotiga baho berish shakllangan. Chunonchi, U. Murkroft, A.Byorns, J.N.Kerzon singari mualliflarning asarlari Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy jarayonlarning Yevropa mamlakatlarida idrok qilinishida katta rol oʻynadi.

Xususan, XIX asrning boshlarida Buxoro amirligiga tashrif buyurgan birinchi ingliz U. Murkroft amir Haydar (1800-1826 yy.) bilan uchrashib, mamlakatdagi umumiy siyosiy vaziyat, mamlakatdagi siyosiy, maʼmuriy, mahalliy qonun-qoidalar, hukmdor, uning amaldorlari, davlatdagi siyosiy tartib-qoidalarni birinchilardan boʻlib yoritib berdi [4]. U. Murkroftning safari davomida yuritgan

kundaligi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, Buxoro amirligida amal qilgan savdo-iqtisodiy tartib qoidalarni tushunishga ham yordam beradi.

Bundan tashqari, 1832-yilda Hindiston oliy hukumati buyrug'iga asosan ingliz sayyohi, tadqiqotchisi, leytenant Aleksandr Byorns Buxoroga keladi. U fors va hindi tillarini puxta o'zlashtirgan diplomat va yuqori harbiy lavozimlarda xizmat qilgan harbiy mutaxassis bo'lgan. A.Byornsning "Buxoroga sayohat. Hindistondan Qobulga, Tartariyaga (Turkiston) va Eronga sayohat haqida hikoyalar" asarida geosiyosiy tadqiqotlar u amalga oshirgan sayohatning asosiy motivi sifatida namoyon bo'lib, XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi geosiyosiy kurash ya'ni "Katta o'yin" doirasida O'rta Osiyodagi, xususan mintaqadagi eng qudratli davlat hisoblangan Buxoro amirligida sodir bo'layotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarni hamda mintaqaning strategik ahvolini o'rganish muhim ahamiyat kasb etgan [5]. Shu bilan birga, Byorns mintaqaga Britaniya hukumati tomonidan mintaqaga haqida harbiy-josuslik ma'lumotlarini yig'ish va mahalliy hukmdorlar, ayniqsa Buxoro amirining hokimiyati va kuch qudratiga baho berish uchun yuborilgan. Albatta A. Byornsning asari Buxoro amirligining geosiyosiy jarayonlardagi o'rnini tushunishda G'arb kitobxonlari uchun manba bo'lib xizmat qildi.

Bundan tashqari, britaniyalik siyosiy arbob, uzoq yillar Angliyaning Hindistondagi Vitse-qiroli, general-gubernatori vazifalarida faoliyat yuritgan Jorj Nataniyel Kerzonning [6] amirlikdagi siyosiy hokimiyat va boshqaruv haqida yozib qoldirgan ma'lumotlarini eslatib o'tish lozim. Buyuk Britaniya va AQShda O'zbekistonga oid tadqiqotlar bo'yicha izlanishlar olib borgan V.Y.Xolovning ta'kidlashicha, J.N. Kerzon 1888-1889-yillar davomida Rossiyaga va O'rta Osiyoga safar qilgan va Amudaryoni tadqiq etish faoliyatini olib borgan. To'plangan materiallari asosida ilmiy maqolalar va safar hisobotlarini "Manchester Courier" gazetasida va bir qancha jurnallarda chop qilib borgan [7]. Uning fikrlarida mustamlakachilik nuqtai nazaridan yondashuvlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, J.N. Kerzonning ba'zi ma'lumotlari tanqidiy o'rganilishni talab etadi, uning ta'kidlashicha, "Buxoro amirligi qoloq va sivilizatsiyadan ortda qolgan hudud bo'lib, uni Britaniya imperiyasi tasarrufiga kiritish zarur. Buxoro amiri esa despotik xarakterdagi hukmdor bo'lib, o'z mamlakatida yakka hokimlik qiladi hamda musulmon bo'lmagan aholiga nisbatan jabr-zulm va kamsitishlarni amalga oshiradi". Uning Angliya siyosiy arbobi ekanligi bois uning qarashlarida Britaniya mustamlakachiligi targ'ibotini yaqqol ko'rish bu tabiiy bir hol. Zero, biz zaminimizdagi mavjud bo'lgan davlatning siyosiy elitesiga nisbatan bunday fikrlarni to'liq haqiqatga yaqin deya olmaymiz. Ammo shunday bo'lsada, J.N.Kerzonning asarida [6] Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid juda ko'p muhim ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Hattoki

J.N.Kerzonning o‘zi ham Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda xorijliklar o‘ylaganchalik qoloq emas, balki o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy yuksalishga ega mamlakat ekanligini tan olgan.

Ikkinchidan, xorijiy tadqiqotchilarda sharqshunoslik nuqtai nazardan yondashib, Buxoro amirligining tarixini yoritish qarashlari ustunlik qilgan. Bundan tashqari ushbu guruh mualliflarining asarlarida tarixiy tadqiqotga ham katta o‘rin berilgan. XIX – XX asr boshlaridagi mualliflarni Buxoro amirligi o‘zining o‘ziga xos spetsifikasi va sirli tarixi bilan o‘ziga tortgan, hamda ko‘p sonli inglizabon mualliflar, tadqiqotchilar, elchilar, diplomatlar Buxoro amirligini siyosiy munosabatlar, voqealar qaynagan nuqta va O‘rta Osiyoning yuragi deb bilishgan. Bundan tashqari, ular o‘z asarlarida amirlarni ilmiy va madaniyatli jamiyatni boshqaruvchi ma’rifatli va donishmand hukmdor sifatida ta’riflashgan. Xususan, Arminiy Vamberi, Frensis Skrayn, Edvard Denison Ross singari XIX asr mualliflarining asarlari va Levi Skotning zamonaviy tadqiqotlarini aynan sharqshunoslik nuqtai nazaridan amalga oshirilgan hisoblanadi.

Buxoro amirligini turli jabhalarda tadqiq qilib, o‘z xulosalarini bergan, ko‘p mamlakatlarda yashab ularning ijtimoiy hayoti, madaniyati bilan tanishgan, juda ko‘p G‘arb va Sharq tillarida so‘zlasha olgan sharqshunos, sayyoh, mojar olimi, 1863-yilda amirlikka tashrif buyurgan Arminiy Vamberi edi. A.Vamberi mintaqaga tashrif buyurib, Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy-madaniy hayoti, amirlik hududida tarqalgan turli tillar, shaharlar va viloyatlarning holati, islom dini masalalari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar to‘plab, o‘zining “Markaziy Osiyoga sayohat” [8] deb nomlangan asarini 1864-yilda Londonda chop qildirgan. A. Vamberi juda O‘rta Osiyo tarixiga oid juda ko‘p asarlar, maqolalar, ocherklar muallifi hisoblanadi. Uning sharqshunoslik rivojiga qo‘shgan hissasi juda katta bo‘lib, XVIII asrda Buyuk Britaniya mustamlakachiligini anglatuvchi “Orientalizm” ya’ni “Sharqshunoslik” g‘oyasining mohiyatan o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Chunki A. Vamberining tadqiqotlaridan so‘ng, sharqshunoslik alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, Buxoro amirligi tarixini o‘rganish Yevropa mamlakatlarida mazkur yo‘nalishning bir qismi sifatida rivojlangan. Shu bilan birga, A.Vamberi Buxoro amirligi xususidagi keng ma’lumotlarning Yevropaning yirik nasriyotlarida chop qilinishiga, kelgusida keng kitobxonlar va ilmiy jamoatchilik tomonidan mutolaa qilinishiga sabab bo‘ldi.

Keyingi o‘rinda tarixiy tadqiqot usuli asosida yaratilgan Buxor amirligi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asarlar sirasiga F.Skrayn va E.Ross kabi tarixchi, tilshunos olimlarning hammualliflikda tayyorlagan asari misol bo‘la oladi. F. Skrayn (1851-1924) Britaniya armiyasi ofitseri sifatida uzoq yillar Hind armiyasida xizmat qilgan, Sankt-Peterburgda Britaniya elchisi sifatida xizmat qilgan davrida O‘rta Osiyoga, shu bilan birga, Buxoro, Samarqand va boshqa

shaharlarga bir necha marotaba safarlar uyushtirgan. U o'zining ushbu mintaqadagi sayohati va uning natijalari to'g'risida "Osiyo yuragi, Rossiya Turkistoni va O'rta Osiyo xonliklarining tarixi eng dastlabki davrlardan" [9] deb nomlangan asar yozgan. U ushbu asarni britaniyalik vatandoshi tilshunos, sharqashunos, Eron va O'rta Osiyo tarixi, madaniyati bo'yicha mutaxassis, olim E.Ross (1871-1940) bilan birga yozadi. E.Ross O'rta Osiyodagi eroniy tilli aholi va uning madaniyatiga qiziqar edi va shuning uchun ham u mintaqani chuqur o'rganishga bel bog'lagan edi. Aynan mintqa tarixiga oid juda ko'p manbalarning tarjimai E.D.Ross tomonidan amalga oshirilgan. F. Skrayn va E.D.Ross o'z asarida asosiy e'tiborni Buxoro amirligining siyosiy hayotiga, uning ma'muriy-hududiy bo'linishiga, amirlarning siyosiy hokimiyatiga qaratadilar. Bundan tashqari, F. Skrayn Rossiya imperiyasining Turkistondagi bosqinchilik yurishidan keyingi davrda Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri masalalarini tarixiy davr nuqtai nazardan tahlil qilgan.

Ushbu guruhga shuningdek, Buxoro amirligining tarixini o'rganishda ulkan hissa qo'shgan, hozirgi kunda ham O'rta Osiyo tarixi bo'yicha tadqiqotlarni olib borayotgan professor Levi Skot tadqiqotini ham kiritish mumkin. Levi Skot o'zining "The Bukharan Crisis: A Connected History of 18th Century Central Asia" (Buxoro inqirozi: O'rta Osiyoning XVIII asr tarixi bilan bog'liq) nomli asarida amirlikning markaziy hokimiyati, amirlarning hokimiyatga kelishi, ularning ichki va tashqi siyosati masalalari, amirlarning qo'shni dalatlar hukmdorlari bilan munosabatlari, mamlakat hududidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat masalalariga to'xtalib, o'lkaga tashrif buyurgan sayyohlar va elchilar asarlarini tahlil qilgan [10].

Keyingi o'rinda bevosita Buxoro amirligining iqtisodiy va savdo faoliyati tarixini o'rganish turadi. Buxoro amirligining iqtisodiy sohasini tarixiy davrga, hududiy taqsimotga, iqtisodiy sohalarga va ijtimoiy munosabatlarga qarab bir necha tarmoqlarga ajratish mumkin. Bunda bir qancha mualliflar tomonidan amirlikning iqtisodiy holati, uning xo'jalik tarmoqlari, ya'ni qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo, davlat iqtisodiyoti, ishchilar masalasi tadqiq qilinib mufassal ma'lumotlar berib borilgan. Shular qatoriga J. Tomson, A.Byorns, G.Lansdell kabi tadqiqotchilarni, shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotchilar sirasiga esa Richard Frayni kiritish mumkin.

Britaniya savdosi tarixiga bag'ishlab 1753-yilda Londonda 4 jildan iborat yirik asarni chop qildirgan britaniyalik muallif Jonas Hanvey asarining I jild 3-qism 52-bobini "1740-yilda Xiva va Buxoro bilan savdo-sotiqni tashkil qilish uchun harakatlar, shuningdek Kaspiy dengizining g'arbiy sohillariga sayohat 1746-yil" [11] deb nomlagan. Mazkur bobda qayd qilinishicha, ingliz savdogari J. Tomson Buxoro xonligi hududiga safarni amalga oshirgan va u o'z xotiralarini

yoziq qoldirgan. Aynan J. Tomsonning xotiralari J. Hanveyning asarida yoritilgan. Unga ko'ra, J. Tomson Buxoroga tashrif buyurgan paytda ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxon Buxoro xonligini nomiga boshqarar, dastlabki mang'itlar Muhammad Hakimbiy va Muhammad Rahimbiy hukmronlikni o'z qo'llariga olayotgan bir davr hisoblanar edi. J. Tompsonning asarida Buxoro amirligining tashkil topishi arafasida iqtisodiy hayot, transchegaraviy savdo-sotiq aloqalari to'g'risida ba'zi aniqliklarni ko'rish mumkin. Chunki, asosan savdogarlik bilan shug'ullangan J. Tomson, asosan Buxoroning kelajakda Britaniya savdosi uchun foyda keltirish yoki keltirmasligini, davlatdagi siyosiy vaziyatning barqaror yoki notinch ekanligini, savdo-iqtisodiy aloqalarning istiqboli bor yo'qligini baholashga harakat qilgan [11].

J. Tomson Buxoro hududiga aynan savdo-sotiq masalalari bilan kelganligi tufayli uning e'tiborini, asosan Buxoroning ichki va tashqi savdo-iqtisodiy faoliyati tortadi. Uning axboroticha, Buxoroning savdosi avvalgi darajadan anchagina kamaygan bo'lib, buxoroliklarning tovarlari, asosan paxta, qo'y mo'ynasi, pat, sholi va qoramol hisoblanadi. Ular sovun, paxta tolasi va kalliko (callicoe) ishlab chiqarib, Eronga sotish uchun olib boradilar. O'z navbatida, Eronda tayyorlanadigan barcha turdagi mahsulotlar, masalan, baxmal, duxoba, ipak, movut, kiyim-kechak olib qaytadilar. Jun matolar, shuningdek, shalun, indigo (nil bo'yog'i), marjon va koxinea kabi tovarlar Erondan import qilinadi. Oldinlari buxoroliklar 16 kunlik yo'l uzoqlikda joylashgan Badaxshon mamlakatidan lazurit va boshqa qimmatbaho toshlarni olib kelishar edi. Ammo yo'llardagi oxirgi urushlar va talonchiliklar oqibatida bu tovarlarni olib kelish juda mushkul bo'lib, endilikda ular boshqa yo'llar orqali boshqa mamlakatlardan olib kelinyapti. Xon va uning amaldorlari juda boy qimmatbaho tosh va taqinchoqlarga egalik qilibgina qolmay, ularning savdosiga katta e'tibor berishganligi haqida axborot J. Tomsonning xotiralarida uchraydi [11].

J. Tomsonning qayd qilishicha, buxoroliklarning pullari og'irligi muskal yoki uch ingliz tiyinig teng oltin dukkatlari, shuningdek, ular tanga deb ataydigan mis parchasi yoki bo'lagi bo'lib, hajmiga qarab 50 dan 80 dukkatgacha o'tadi. Ularning o'z kumush tanga pullari yo'q. Ammo Nodirshoh tomonidan bu hududlar egallangach fors va hind kumush tangalari bu yerda muomalada yuradi. Muallif Mahalliy va xorijliklarga tegishli import qilinadigan tovarlarga ular umumiy narxining 1 % i birdek, eksport qilinadigan tovarlarga esa 10 % i boj joriy qilinganligi, boj to'lovlaridan keladigan daromad tinch paytlarda 1000 dukkatni tashkil qilib, tinch vaqtlar onda sonda bo'lganligi xususida ham axborot beradi [11]. Jorj Tomson siyosiy beqarorlik, qarama-qarshiliklar davrida ham Buxoro xonligi va unga qo'shni mamlakatlar orasida savdo-iqtisodiy aloqalarning to'xtamaganligi, Buxoro davlatining transchegaraviy va xalqaro savdo-iqtisodiy

munosabatlarga tortilgan va unda o'z o'rniga ega davlat bo'lganligi kabi xulosalarga kelgan. Uning asarida o'ziga xos xato va kamchiliklar, Britaniya savdo gegemonligi g'oyasi kabi noto'g'ri qarashlar ham bor, ammo uning xotiralari subyektiv xususiyatga ega manba ekanligini, uning savdogar sifatidagi maqsadlarini inobatga olsak bu tabiiy hisoblanadi. J. Tomsonning xotiralari tufayli Buyuk Britaniya va Yevropaning boshqa mamlakatlariga Buxoro xonligidagi savdo-sotiq ishlari, mamlakatning iqtisodiy tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar yetib bordi va keng jamoatchilik tomonidan mutolaa qilindi.

Bundan tashqari, A.Byorns asarida Buxoro amirligining registoni va saroylari, mintaqa tavsifi, shaharlari hayoti, ularning iqtisodiy ahvoli, Buxoro bozorlari, ulardagi savdo-sotiq, mahsulotlar, Buxoro amirligining daromadlari, umumiy mamlakatning tashqi siyosati va iqtisodiy munosabatlari kabi masalalarni yoritadi. Aleksandr Byorns shaxsan Buxoro amirligida bo'lib, amirlik hayotini o'z ko'zi bilan ko'rganligi sababli muhim ma'lumotlarni yozib qoldirgan, hamda biz uning asarini nafaqat iqtisodiy muammolarni balki siyosiy masalalarni yorituvchi manba sifatida e'tirof etishimiz mumkin [5]. A. Byornsning safari, safar davomida yaratilgan asari Buxoro nomining Yevropa mamlakatlarida ommalashuvida muhim ahamiyatga ega bo'lib, unga katta shuhrat keltirdi. Shu bilan birga, XX asrning 80-yillarida U. Murkroft sayohati bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirgan Garri Alderning ta'kidlashicha, A.Byornsning asari chop etilgan 1834-yildayoq ko'p sonda sotilgan, ko'p tillarga tarjima qilingan va G'arb kitobxonlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshilangan [12]. Hattoki, A. Byornsga uning qimmatli asari va Buxoro amirligini tadqiq qilganligi uchun "Buxorolik Byorns" degan nom berilgan. 1834-yilda A. Byorns London Qirollik Jamiyati a'zosiga aylanadi.

Bundan tashqari, Buxoro amirligining iqtisodiy hayoti bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi muhim tarixiy ma'lumotlarni Britaniya qirolligi Geografiya jamiyati a'zosi bo'lgan, 1882-yilda Markaziy Osiyoga safar uyushtirgan va safar natijalari asosida ikki jildli asar [13] yozgan Genri Lansdell tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. Muallif asarda Turkiston, O'rta Osiyo xonliklari qatorida Buxoro amirligining ham shaharlari, shaharlarning tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi to'g'risida muhim ma'lumotlarni keltiradi. Genri Lensdellning Buxoro amirligiga nisbatan munosabati ijobiy bo'lganligi bilan bir qatorda uning tadqiqotlari Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy tarixi bo'yicha yaxlit ilmiy izlanishlar deyish mumkin [13]. G. Lensdellning sayohati natijasida siyosiy mutasaddilar, ilmiy jamiyatlar vakillar bilan bir qatorda oddiy ingliz kitobxonlari Buxoro amirligining iqtisodiy holati, mamlakatdagi resurslar, savdo-sotiq munosabatlari to'g'risida ilmiy axborotlarga ega bo'ldilar.

Buxoro amirligining iqtisodiy tarixini o'rganar ekanmiz amerikalik tadqiqotchi, Eron va O'rta Osiyoni o'rganish bo'yicha mutaxassis bo'lgan Richard Frayning

(1920-2014) tadqiqotiga to'xtalib o'tishimiz joiz deb bilamiz. Amirlik iqtisodiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilar ekan R.Fray o'z xulosalari asosida "Buxoroliklar: sulola, diplomatiya va savdo tarixi, 1550-1702" [14] nomli asar yozib, Buxoro amirligining iqtisodiy tarixi, qo'shi davlatlar bilan savdo aloqalari, uning mintaqadagi savdo sanoat markazi ekanligi, qishloq xo'jaligi rivoji, amirlikda ishlab chiqarilgan tovarlar, asosan ipak va paxta, Buxoro amirligining iqtisodiy siyosat va uning mintaqaga ta'siri to'g'risida mufassal tavsif beradi.

Buxoro amirligining tarixini o'rganishda keyingi darajada turgan muhim masalalardan biri bu amirlikning ijtimoiy hayoti va madaniyati masalalari hisoblanadi. Buxoro amirligining ijtimoiy va madaniy hayoti amirlikning mavjud bo'lgan davridayoq juda ko'p inglizzabon tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib, osha davrlarda ham, so'nggi yillarda ham ular amirlik ijtimoiy tuzumini, aholisini, amirlikning madaniyatini o'rganishda sezilarli yutuqlarga erishdilar. Ba'zi ingliz tilli mualliflar amirlikning siyosiy tuzumi, iqtisodiy tuzilishi, davlat hokimiyati, undagi amirning roli, boshqaruv elitasi, va uning byurokratik faoliyati masalalariga e'tiborni qaratish asnosida uning ijtimoiy tuzumi va hayotini yoritib berishga hamda ishchilar hayoti, soliqlar va ularning mahalliy aholi hayotidagi o'rnini tushuntirib berishga uringan bo'lsalar, ba'zi tadqiqotchilar asosiy e'tiborni amirlikning madaniy va intellektual hayotiga qaratib amirlik jamiyatidagi ijtimoiy va madaniy hayotda Islom dinining rolini, diniy institutlar, madrasa va msjidlarning ahamiyatini yoritib berishga harakat qilganlar. Boshqa guruh olimlari esa Buxoro amirligi haytidagi ba'zi madaniy aspektlar bo'lmish she'riyat, musiqa, adabiyot, milliy an'analarni tahlil qilishgan.

Buxoro amirligining ijtimoiy va madaniy jarayonlarini o'rganib o'z xulosalarini bergan A.Vamberi mintaqaga tashrif buyurib amirlik hududida yashovchi o'zbek, turkman, tojik, qozoq urug'lari, ularning ijtimoiy-madaniy hayoti, yurish-turishi, o'ziga xos xususiyatlari, urf-odatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar to'plab asarida qayd qilgan [8]. Muallifning Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlari ilmiy-empirik kuzatuvlarga asoslangan bo'lib, mamlakat jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini keng tushunish imkonini beradi. Ayniqsa, A. Vamberi tomonidan asarning ingliz tilida chop qilinganligi keng Yevropa mamlakatlarida keng ilmiy jamoatchilikning e'tiborini tortgan.

Buxoro amirligining ijtimoiy hayotini o'rganishda bir qancha inglizzabon tarixchi olimlar ijtimoiy hayotni bir nechta guruhlariga ya'ni ijtimoiy sinflar, jamiyatda ayollar va erkaklarning roli masalalari, etnik va identifikatsiya masalalari, oila va xonadonlar, urug'lar masalalari, ta'lim va madaniyat masalalariga ajratib o'rgandi.

Chunonchi, Buxoroga tashrif buyurgan Genri Lensdell, Annit Meakin singari ingliz tadqiqotchilari Buxoro amirligining ijtimoiy va iqtisodiy hayoti masalalari, o'z sayohati davomida guvoh bo'lgan aholining urf-odat va an'analari, yurish turishi, dehqonchilik tartibi, hunarmandchilik va savdo sotig'i, bundan tashqari, Buxoro amirligi shaharlari tuzilishi, ularning ijtimoiy hayoti, tarixiy obidalari, masjid va madrasalar, turar joylar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Genri Lensdell ijtimoiy hayotning turli jabhalarida tadqiqotlar olib borgan holda aholining maishiy hayot tarzi, ta'lim tizimi, maktablar va madrasalar, ularda mavjud bo'lgan infratuzilma, tibbiyot sohasi, kasalliklar, ularni davolash usullari, ta'lim va tibbiyot sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri kabi jihatlarni yoritgan [13].

Britaniyalik ayol sayohatchi, tadqiqotchi va yozuvchi, Buyuk Britaniya va Irlandiya Antropologiya instituti a'zosi Annit Meakin amir Sayyid Abdulahadxon hukmronligi davrida Buxoro amirligiga ikki marotaba tashrif buyurib, keng ma'lumotlar to'playdi. U 1903-yilda Londonda o'z asarini chop qildirib, Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ta'lim, tibbiyot sohalari, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, ularga munosabat, urf-odat va an'analar xususida qimmatli axborotlarning Yevropa mamlakatlarida keng yoyilishiga katta hissa qo'shgan. A. Meakinning maqsadlari va g'oyalari Britaniya imperiyasi maqsadlariga xizmat qilgan bo'lsada, uning faoliyati ilmiy tadqiqot ekspeditsiyasi hiaoblanadi. Uning ma'lumotlari asosan ilmiy-etnografik va tarixiy uslubda qayd qilingan. A. Meakinning tadqiqotlarida Buxoro amirligi Turkiston mintaqasidagi eng kuchli tibbiy bilim beriladigan mamlakat sifatida e'tirof etiladi [15].

Shu bilan birga Buxoro amirligida ijtimoiy-madaniy jarayonlarni tadqiq qilgan britaniyalik diplomat, sharqshunos tadqiqotchi Richard Frensis Bertoni (1821-1890) tilga olish lozim. R.F.Berton 1860-1861-yillarda O'rta Osiyoga, Eronga, Afg'onistonga va Hindstonga tashrif buyurgan, shu bilan birga 1860-yilning yozida Samarqandda ham bo'lgan R.F. Berton Buxoro amirligining ko'p shahrlarini, tarixiy obidalarini, islom arxitekturasini, masjid va madrasalarni, xonaqoh, maqbara va hammomlarni tasvirlaydi. Ayniqsa, uning o'z "Persiya, Turkiston va O'rta Osiyo bo'ylab ikki ming mil" [16] nomli asarida keltirgan Buxoro amirligi aholisining hayoti, mashg'ulotlari, dehqonchilik va hunarmandchilik an'analari, chorvachilik, mahalliy bozor, Buxoroning Xitoy, Rossiya, Eron va Hindiston bilan tashqi savdo aloqalari haqidagi qimmatli ma'lumotlari muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Shunday qilib, o'rganilayotgan mavzu, ya'ni Buxoro amirligining tarixi bo'yicha inglizabon mualliflarining tarixiy, ilmiy asarlari va ularning amirlik

siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti to'g'risidagi ilmiy qarashlari turli xil va ko'p tomonlama hisoblanadi. Ba'zi olimlar tomonidan asosiy e'tibor Buxoro amirligiga Markaziy Osiyo madaniyatiga, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti rivojiga katta hissa qo'shgan yuqori darajadagi madaniy va intellectual markaz, hamda mintaqadagi Islom dinining asosiy markazi sifatidagi funksiyalariga qaratilgan bo'lsa, boshqa mualliflar asarlarida Buxoro amirligining mintaqadagi tashqi munosabatlarda va qo'shni davlatlar bilan aloqalarda asosiy siyosiy subyekt rolini bajarganligi to'g'risidagi faktlarga e'tibor qaratilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ko'p sonli ingliz-amerika tadqiqotchilarining asarlarini o'rganish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, mualliflarning katta qismi Buxoro amirligining yuqori darajadagi madaniyati, arxitektura yodgorliklari, ilm va ma'rifati, hamda mintaqadagi asosiy faktor sifatidagi roli bo'lganligini ta'kidlashgan. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, ingliz-amerika mualliflar tomonidan Buxoro amirligi tarixini, uning Markaziy Osiyoda muhim davlat sifatidagi murakkab va ko'p tomonlama xarakterini ifodalashda muhim rol o'ynagan boy adabiyotlar kompleksini yarata oldilar. O'rganilayotgan mavzu dolzarb bo'lib, bundan keyin ham muhim va maxsus tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Explorations in Turkestan: With an Account of the Basin of Eastern Persia and Sistan. Expedition of 1903 Under the Direction of Raphael Pumpelly. 1905. US / Washington D.C. Volume I, –P.67.
2. Масалиева О.М. XX аср инглиз-америка тарихшунослигида Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари тарихи. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. –Т.: 1999. –Б.44.
3. Данков А.Г. Британская историография второй половины XIX в. об англо-русских противоречиях в Центральной Азии // Вести. Томского государственного университета. Томск. -2007. №300-1. –С.88.
4. William Moorcroft, George Trebeck. Travels in the Himalayan provinces of Hindustan and the Panjab; in Ladakh and Kashmir; in Peshawar, Kabul, Kunduz, and Bokhara from 1819 to 1825. By Horace Hayman Wilson – In two volumes. Volume I. London: John Murray, Albemarle Street. 1841. –B.19-22.
5. Alex Burnes. Travels into Bokhara; Being the account of A Journey from India to Cabul, Tartary, Persia; Also, Narrative of A Voyage on the Indus, from the Sea to Lahore, with the present from the King of Great Britain: performed under the orders of the Supreme Government of India, in the years 1831, 1832, and 1833. In the three volumes. London: John Murray, Albemarle street. 1834. Volume I, 356 pages. -P.10-13.

6. George Nathaniel Curzon. Russia in Central Asia in 1899, and the Anglo-Russian Question // London, Longmans, Green, and Company. 1899. 345 pages.
7. Xolov V.Y. O'zbekiston Milliy Kutubxonasi nodir nashrlar fondi adabiyotlarining mamlakatimiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati. // Kutubxona.uz ilmiy-uslubiy jurnali. №1 (45) 2020. -B.48.
8. Arminius Vambery. Travels in Central Asia, being the Account of a Journey from Turkoman desert on the Eastern shore of the Caspian to Khiva, Bokhara and Samarcand. London. John Murray, Albemarle Street. 1864.
9. Francis Henry Skrine, Edward Denison Ross. The Heart of Asia: A History of Russian Turkestan and the Central Asian Khanates from the Earliest Times. London. 1899.
10. Scott Levi. The Bukharan Crisis: A Connected History of 18th Century Central Asia. University of Pittsburgh press. Pittsburgh, 2020. 208 pages.
11. Jonas Hanway. An Historical Account of the British Trade over the Caspian Sea: with a Journal of Travels from London through Russia Into Persia; and back again through Russia, Germany and Holland. To which are added, the revolutions of Persia during the present century, with the particular history of the great usurper Nadir Kouli. Volume I-IV. London. 1753. Vol. I. 457 pages. –P.353.
12. Garry Alder. Beyond Bokhara. The life of William Moorcroft Asian explorer and pioneer veterinary surgeon 1767-1825. London: Century publishing, 1985. 417 pages. –B.346.
13. Lansdell Henry. Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv. London, Sampson Low, Marston, Searle, And Rivington, 1885. Volume I, 688 pages. Volume II, 732 bet.
14. Richard Nelson Frye. The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History, 1550-1702. Cambridge, The Harvard University Press, Massachusetts, USA. 1963. –P.123-124.
15. Annette M.B. Meakin. In Russian Turkestan. A Garden of Asia and its people. London, George Allen, 156, Charing cross road, 1903. 316 pages.
16. Robert Francis Burton. Two Thousand Miles in Persia, Turkestan, and Central Asia. Travels from Persia to India Through Herat, Bala, Bela, Turkestan, and the Caspian Sea. London, England. Tinsley Brothers. 1872. –P.235-240.

Мубинов М. А.

Базовый докторант

Бухарский Государственный Университет

mubinovm94@mail.ru

ПОПУЛЯРИЗАЦИЯ СВЕДЕНИЙ О БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В ЕВРОПЕЙСКИХ СТРАНАХ (НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ АВТОРОВ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье с точки зрения исторической науки анализируется роль и значение произведений англоязычных авторов XVIII–XIX веков, а также современных исследователей в изучении политической и социально-экономической истории Бухарского эмирата. Кроме этого, на научной основе раскрывается процесс широкого распространения и популяризации сведений о Бухарском эмирате в странах Европы посредством источников, созданных на английском языке. Особое внимание уделяется отражению истории Бухарского эмирата в западной историографии, содержательным особенностям этих трудов и процессу формирования исторических описаний.

Ключевые слова: Бухарский эмират, дипломат, путешествие, колониальный подход, востоковедение, англоязычные авторы, «Большая игра», социально-экономическая жизнь, исторический источник, деконструкция.

Mubinov M. A.

Basic doctoral student

Bukhara State University

mubinovm94@mail.ru

THE POPULARIZATION OF INFORMATION ABOUT THE BUKHARA EMIRATE IN EUROPEAN COUNTRIES (BASED ON THE WORKS OF ENGLISH-SPEAKING AUTHORS)

ABSTRACT

This article analyzes, through a historiographical perspective, the role and significance of works produced by English-speaking authors of the 18th–19th centuries, as well as those of contemporary researchers, in the study of the political and socio-economic history of the Bukhara Emirate. The paper scientifically examines the process of the widespread dissemination and popularization of information about the Bukhara Emirate in European countries through English-

language sources. Special attention is given to the representation of the history of the Bukhara Emirate in Western historiography, the content-specific features of these works, and the process of the formation of historical narratives.

Key words: Bukhara emirate, diplomat, travel, colonial approach, Orientalism, English-speaking authors, “The Great Game”, socio-economic life, historical source, deconstruction.